

Date: 17th November-2025

“O‘ZBEKISTONNING BMT MINBARIDAGI TASHABBUSLARI: XALQARO HUQUQIY TAMOYILLAR VA NORMATIV ASOSLAR TAHLILI”

To‘rayeva Sabinabonu

Buxoro Davlat Universiteti “Yurispredensiya” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Obidova Ruxshona

O‘zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar universiteti “Siyosatshunoslik” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Birlashgan Millatlar Tashkilotining 80-yubiley sessiyada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ishtiroki, ilgari surgan takliflari va bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan hodisalarga nisbatan bildirgan fikrlari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek rahbar olib borayotgan pragmatik siyosatning davlat ravnaqiga ta’siri qanchalik muhim ekanligi ham tushuntirib beriladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro xavfsizlik, barqaror rivojlanish, BRM (SDG), Yangi O‘zbekiston, diplomatik muzokaralar, yashil iqtisod, yashil energetika, iqlim migratsiyasi, integratsiya, logistika, ta’lim, sog‘liqni saqlash, Orol ekotizimi, raqamli rivojlanish, bag‘rikenglik siyosati.

“UZBEKISTAN’S INITIATIVES AT THE UN TRIBUNE: ANALYSIS OF INTERNATIONAL LEGAL PRINCIPLES AND NORMATIVE FOUNDATIONS”

Turaeva Sabinabonu

Bukhara State University, Faculty of Jurisprudence, 4th-year student –Uzbekistan

Obidova Ruxshona

University of Journalism and Mass Communications, Faculty of Political Science, 2nd-year student

Annotation: This article provides information about the participation of the President of the Republic of Uzbekistan in the 80th anniversary session of the United Nations, the proposals he put forward, and his views on current global events. It also explains the significance of the pragmatic policy pursued by the country’s leadership and its impact on national development.

Keywords: international security, sustainable development, SDG, New Uzbekistan, diplomatic negotiations, green economy, green energy, climate migration, integration, logistics, education, healthcare, Aral Sea ecosystem, digital development, policy of tolerance.

«ИНИЦИАТИВЫ УЗБЕКИСТАНА НА ТРИБУНЕ ООН: АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫХ ПРИНЦИПОВ И НОРМАТИВНЫХ ОСНОВ»



Date: 17th November-2025

Тураева Сабинабону

Бухарский государственный университет, направление «Юриспруденция»,
студентка 4-го курса

Обидова Рухшона

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, направление
«Политология», студентка 2-го курса

Аннотация: В данной статье представлена информация об участии Президента Республики Узбекистан в 80-й юбилейной сессии Организации Объединённых Наций, о выдвинутых им предложениях, а также о его взглядах на происходящие сегодня мировые события. Кроме того, раскрывается значение прагматичной политики, проводимой руководством страны, и её влияние на развитие государства.

Ключевые слова: международная безопасность, устойчивое развитие, ЦУР, Новый Узбекистан, дипломатические переговоры, зелёная экономика, зелёная энергетика, климатическая миграция, интеграция, логистика, образование, здравоохранение, экосистема Арала, цифровое развитие, политика толерантности.

XXI asrda jahon siyosiy-iqtisodiy tizimidagi o'zgarishlar xalqaro huquqning o'rni va ahamiyatini yanada oshirdi. Davlatlar o'z tashqi siyosatini xalqaro huquq normalariga asoslangan holda yuritishi global barqarorlikning muhim omillaridan biriga aylandi. O'zbekiston ham mustaqillik yillaridan boshlab xalqaro huquqning prinsiplari — suverenitet, hududiy yaxlitlik, kuch ishlatmaslik, tinchlikni saqlash va inson huquqlarini ta'minlashni o'z tashqi siyosatining asosiga qo'ydi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan BMT Bosh Assambleyasi minbarida ilgari surilayotgan tashabbuslar nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham xalqaro huquqning zamonaviy yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Xususan, xavfsizlik, ekologiya, suv huquqi, inson huquqlari, iqlim migratsiyasi, gender tengligi, sun'iy intellektning huquqiy tartibga solinishi kabi masalalar davlatning yangi tashqi siyosiy yondashuvining asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi.

Shu bois mazkur maqolada O'zbekistonning BMTdagi siyosiy pozitsiyasi xalqaro huquqiy tamoyillar bilan uyg'unlashuv asosida tahlil qilinadi hamda ilgari surilgan taklif va tashabbuslarning xalqaro huquq tizimidagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Dunyo davlatlari orasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish va xavfsizlikni ta'minlash va jahonda tinchlik o'rnatish maqsadida tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti joriy yilning 24-oktabrida rasman 80 yoshga to'ldi. Shu munosabat bilan sentabr oyida AQSHning New-York shahrida BMTning 80-yubiley sessiyasi bo'lib o'tdi va unga a'zo 193 davlat va 2 kuzatuvchi maqomidagi davlatlar ishtirok etishdi va davlat rahbarlarining chiqishlari bo'lib o'tdi.

O'z davlati manfaatlarini aks ettirgan rahbarlar orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham BMT minbarida butun o'zbek xalqi nomidan, davlat manfaatlaridan uzoqlashmagan holda nutq so'zladi. Prezident o'z nutqini bugungi kunda



Date: 17th November-2025



barcha masalalardan ham ustun bo'lib qolayotgan xavfsizlik to'g'risida fikr bildirish bilan boshladi va o'z taklifini ham aytib o'tdi. Unga ko'ra xavf-xatarlarga qarshi kurashish va rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida BMT Xavfsizlik kengashini transformatsiya qilish va uning tarkibini kengaytirish kerakligi aytib o'tildi.

2015-yil sentabr oyida BMTga a'zo davlatlar tomonidan Barqaror Rivojlanish Maqsadlari qabul qilinadi. Bu global maqsadlarning qabul qilinishidan asosiy maqsad "odamlar va sayyora uchun tinchlik va farovonlik" bo'lib, u iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, okeanlar va o'rmonlarni saqlab qolish ustida ishlash hisoblanadi. Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) 17 asosiy maqsadni o'z ichiga olgan bo'lib u maqsadlar dunyo aholisi turmush darajasini yaxshilash, ekologik muammolarning kelib chiqishini oldini olish, suv resurslarini tejash va qayta ishlash kabi bugungi kunda insoniyatning eng dolzarb muammolarini bartaraf etishga qaratilgan.

BRMning qabul qilinishida yuqorida aytib o'tganimizdek BMTga a'zo davlatlarning barchasi ishtirok etgan va o'z takliflarini kiritgan, shu jumladan O'zbekiston ham. Bugungi kunda BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlarini dunyoning 193 mamlakati qabul qilgan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 841-son qarori qabul qilinib har bir yo'nalish bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralar tashkil etildi.

BRM nafaqat O'zbekiston tomonidan qabul qilindi shuningdek bu maqsadlar davlatimiz taraqqiyoti uchun mo'ljallangan 2017-2021 "Harakatlar strategiyasi"da hamda "O'zbekiston 2030" strategiyasida ham o'z aksini topgan.

2021-yil 23-24- iyun kunlari Buxoro shahrida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo global hamkorlik xalqaro forumi o'tkazildi.

2023-yilning 30-noyabrida Toshkent shahrida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo global hamkorlik xalqaro forumi ikkinchi bor o'tkazildi.

BMT ning 80-sessiyasida ham prezidentimiz Shavkat Miromonovich aynan BRM da ko'rsatilgan masalalar yuzasidan O'zbekistonda amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari haqida jahon jamoatchiligiga ma'lum qildi. Davlatimiz rahbarining amalga oshirilgan islohotlarni aynan BRM ga mos ravishda bayon qilishi 43-sessiya ishtirokchilarining barchasiga tushunarli bo'lganligidan, ya'ni har bir ishtirokchi davlat BRM ning nima ekanligini va unda qanday atamalar ishlatilganligidan xabardor. Shu sababdan amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalarini Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga moslagan holda bayon qilish orqali aytilayotgan ma'lumotlarning barchaga tushunarli bo'lishi ta'minlanadi.

Quyida O'zbekiston Respublikasi prezidentining nutqida keltirib o'tilgan maqsadlar va ularning natijalari hamda davlat rahbarining qo'shimcha takliflari ko'rsatilgan.

1. O'zbekistonda bugungi kunda kambag'allik darajasi 35% dan 6.6% ga qisqartirildi. (BRMda keltirilgan birinchi maqsad aynan kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan).

2. Maktabgacha ta'lim qamrovi 27%dan 78%ga o'sdi.

3. Oliy ta'limda yoshlarning qamrovi 9%dan 42% ga yetdi. (BRMning 4-maqsadi sifatli ta'limga bag'ishlangan). Prezident Sh.Mirziyoyev ta'lim jarayonida

Date: 17th November-2025



o'qituvchilarning roliga alohida ahamiyat qaratgan holda "O'qituvchilik kasbini obro'si va nufuzini oshirishga harakat qilinayotganligi, o'qituvchilar o'rtasida tajriba va bilim almashish uchun yagona xalqaro platformani yaratish maqsadida O'zbekistonda Butunjahon Professional ta'lim sammiti o'tkazish" taklifini bildirib o'tdi.

4. Sog'liqni saqlash tizimida ham katta muvaffaqiyatlarga erishilgan va asosiy yutuq 24.09.2025-yilda BMT sessiyasi davomida Nyu-York shahrida BMT bosh qarorgohida "Bolalar saratoni va boshqa kasalliklarga qarshi kurashish" bo'yicha sammit bo'lib o'tganligi hisoblanadi. (BRM ning sog'liq va salomatlikka bag'ishlangan maqsadi bu 3-maqsad).

5. Gender tengligi masalasida Osiyo xotin-qizlar forumini tashkil etish. (Gender tengligi masalasi BRMda 5-o'rinni egallagan).

6. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida savdo, investitsiya va transport aylanmasi 5 baravarga ko'paydi. Davlatimiz rahbari iqtisodiy-investitsion jihatdan o'sish borasida ham bir qator takliflarni bildirib o'tdi. Jumladan: ECOSOC (UN Economic and Social council- BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy kengashi) va UNCTAD (UN Trade and Development- BMTning Savdo va Rivojlanish tashkiloti) shafeligida Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy taraqqiyotiga bag'ishlangan xalqaro forum o'tkazish, UNIDO (UN Industrial Development Organization- BMTning Industrial rivojlanish tashkiloti) bilan sanoatda yashil texnologiyalar mintaqaviy xabini tashkil etish, BMT bosh assambleyasining Markaziy Osiyo bilan mintaqaviy sheriklik va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga doir rezolyutsiyasini qabul qilish. (BRMning 8-maqsadi aholini munosib ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sish hisoblanadi. Agar yuqorida bildirilgan takliflar amalga oshirilsa nafaqat O'zbekiston balki butun Markaziy Osiyo davlatlarida ishlab chiqarish, savdo-investitsiya va sanoat rivojlanadi hamda shularning hisobiga korxonalar tashkil etilib aholining ko'pchilik qismi o'z ish o'rniga ega bo'ladi. Shuningdek aholi migratsiyasining kamayishiga ham yo'l ochib beradi).

7. Suv resurslaridan oqilona foydalanish va yashil makon va demografik barqarorlikka erishish masalalari ham ilgari surildi. (BRMning 6-maqsadida toza suv va sanitariyaga 15-maqsadida esa yerdagi hayotga ya'ni ekotizimga va hayvonot olamiga alohida e'tibor berilgan).

8. Afg'onistonning yakkalanib qolishiga yo'l qo'ymaslik, Afg'onistonda katta iqtisodiy va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, Afg'oniston orqali xalqaro transport va energetika karidorlarini tashkil etish bo'yicha BMT rezolyutsiyani qabul qilish shuningdek G'azoda harbiy harakatlarni to'xtatish va siyosiy muzokaralar taklif etish va "2 xalq uchun 2 davlat" tamoyilini qo'llab quvvatlash, Ukraina muammosini hal etish va diplomatik muzokaralarni qo'llab quvvatlash kabi dunyoda tinchlikni qo'llab quvvatlashga doir qator takliflar ham berib o'tildi.

9. Markaziy Osiyoda Global aksinterror strategiyasini bajarish bo'yicha samarali ishlar olib borilayotganligi haqida so'zlab BMTning terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan hamkorlikda Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo'yicha tuzilgan Mintaqaviy kengashni Xalqaro Kompetensiyalar markaziga aylantirish taklifi ham berilib

Date: 17th November-2025

tuzilma muammoli hududlardan qaytarilgan aholini tinch hayotga moslashtirish uchun muhim platforma bo'lib xizmat qilishi haqida ta'kidlab o'tildi. Shuningdek Terrorizmga qarshi kurash mintaqaviy ofisini O'zbekistonda ochish uchun sharoit yaratish to'risida ham aytib o'tildi.

10. Xalqaro transit karidorlarini xavfsizligini ta'minlash va samarali logistika zanjirlarini yaratish o'ta muhimligi ham takidlab o'tilib, shu borada BRM uchun transport bog'liqligini mustahkamlash global mexanizmini joriy etish taklifi ham berildi. (Davlat rahbarining ushbu takliflari BRM ning 16-maqsadiga muvofiq keladi. Yuqorida aytib o'tilgan maqsadlarning barchasida tinchlik va adolatli xalqaro siyosat yuritish haqida so'z yuritilgan va "Tinchlik, adolat va kuchli institutlar" 16-maqsadga o'z ifodasini topgan).

11. Orol ekotizimining salbiy tomonga o'zgarib ketganligi hisobiga Orol dengizini qayta tiklanishi uchun ishlarni izchil davom ettirish kerakligi aytib o'tildi. Bugunda kunda O'zbekiston tomonidan Orol dengizi va uning atrof muhitini saqlab qolish va yaxshi tomonga o'zgartirish uchun olib borilgan ishlar shu jumladan, dengizning qurib cho'llashgan hududlarida 2 mln gektar yerga saksovul va sho'rga chidamli o'simlik ekilganligi aytib o'tildi. Orolni qutqarish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi 2030-yilda Orolning atrofidagi 80% hududi yashillik bilan qoplanishi ham aytib o'tildi.

12. Bugunda kunda 2 mlrd aholi toza ichimlik suviga ega emasligi ham prezidentimiz e'tiboridan chetda qolmagan holda xalqaro jamiyatga eslatib o'tildi. Davlat rahbari tomonidan O'zbekistonda suvni tejash bo'yicha butun jahon forumini o'tkazish taklifi ilgari surildi. Suv inqirozini barqaror taraqqiyot uchun jiddiy tahdid sifatida belgilash mo'ljallanmoqda va bu borada global darajada innovatsiya texnologiyalarni joriy qilish uchun yo'l xaritasi tuzish masalasiga ham to'xtalindi.

(Barqaror Rivojlanish Maqsadlarida aynan suv masalasi dolzarb bo'lganligi uchun u 6-maqsad sifatida kiritilgan. Aynan suv inqirozini kamaytirish va dunyo aholisini toza suv bilan ta'minlash bilan birga sanitariya masalasi ham e'tibordan chetda qolmagan va shuning uchun BRMning 6-maqsadiga kiritilgan).

13. Global muammolardan bugungi kunda barchaning diqqat markazida bo'lgan masala bu Iqlim migratsiyasi. Iqlim o'zgarishi aslida insoniyatni halok qiladigan masalalardan biri u insoniyatni halok qilmasdan oldin biz insonlar tabiatni halokat yoqasiga boshlab keldik endi tabiatda iqlim o'zgarishidan tashvishdamiz. Atrof muhitni asrab qolish va iqlim o'zgarishini to'xtatishning butkul iloji yo'q, lekin qisman barqarorlikni ta'minlashning chorasi bor. Shunday chora tadbirlarni amalga qo'llash va maqsad-vazifalarni taqsimlab olish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish bo'yicha global pakt" qabul qilish taklifi ilgari surildi.

14. Ilm-fan va texnologiyalar, sun'iy intellekt rivojlanib borayotgan zamonda davlatlar o'rtasida iliy-amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish ham e'tibordan chetda qolmadi. Davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatlar o'rtasida raqamli rivojlanish va sun'iy intellektidan foydalanishda tengsizlikning oldini olish muhim ahamiyatga ega muhim ahamiyatga ega ekanli ta'kidlandi. Shu bilan birga prezidentimiz davlatlar o'rtasida ta'lim,



Date: 17th November-2025

sog'liqni saqlash va madaniyat sohasida suniy intellektning amaliy yechimlari va modellarini beg'araz almashishga qaratilgan xalqaro hamkorlik mexanizmini yaratish tarafdori ekanligini ham aytib o'tdi.

Davlatlar o'rtasida sun'iy intellekt sohasida hamkorlikning yo'lga qo'yilishi global xavflardan ogoh bo'lish va ularga qarshi birgalikda kurashish, ma'lumotlarning ishonchliligini saqlab qolish borasida katta imkoniyatlar beradi. Bir davlat to'g'risida boshqa davlatga soxta yoki ishonchsiz ma'lumotlar tarqalmasligi va aynan sun'iy intellekt orqali xalqaro hamjamiyatda katta nufuzga ega bo'lgan tashkilot yoki shaxslarning obro'sizlantirilishidan ham saqlanish imkoni paydo bo'ladi, agar sun'iy intellekt masalasida davlatlar birlasha olsa va o'zaro tajriba almashgan holda sun'iy intellektning yangi qirralarini ochishga erishilsa bu xavflarning bo'lish ehtimoli kamayadi.

15. O'zbekiston xalqaro munosabatlarda tinchlikparvar siyosati bilan alohida ajralib turadi. Buni davlat konstitutsiyada ham ko'rishimiz mumkin.

"O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi."

O'zbekiston o'zining tinchlikparvar siyosatini jahon yoshlari orasida yoyish maqsadida "Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati" ni tashkil etish va qarorgohini O'zbekistonda joylashtirish taklifini ilgari surdi.

16. Davlatimizning tinchlikparvar siyosatining na'munasi sifatida yana bir taklifni misol keltirish mumkin –bu

Islom marifati g'oyalarini chuqur o'rganish va dunyoga targ'ib etish va Imom-al Buxoriy, Imom –at Termiziy, Moturudiy kabi olimlarning ilmiy me'rosi taqdimotini BMTda o'tkazish bo'lib Yangi O'zbekiston barcha davlatlar bilan ozaro hamjihatlikochiq muloqot va yaqin sheriklik tarafdori ekanligi ham eslatib o'tildi.

O'zbekistonning BMT minbarida ilgari surgan tashabbuslari xalqaro huquqning ustuvor tamoyillari — tinchlik, xavfsizlik, xalqaro hamkorlik, inson huquqlari, ekologik barqarorlik va barqaror rivojlanish bilan bevosita bog'liqdir. Bu tashabbuslarning mazmuni O'zbekistonning xalqaro huquqiy maydondagi faolligini, mintaqada barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan strategik yondashuvini hamda global mas'uliyatni bo'lishishga tayyorligini namoyon etadi.

BMTga a'zo mustaqil davlat sifatida O'zbekiston xalqaro huquq normalarini izchil qo'llab-quvvatlab, ularga amal qilish orqali xalqaro hamjamiyatda o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. Xususan, BRM, iqlim o'zgarishi, suv resurslari, Afg'oniston masalasi, terrorizmga qarshi kurash, sun'iy intellektning huquqiy tartibga solinishi kabi masalalarda bildirilgan takliflar xalqaro huquqning dolzarb yo'nalishlarini qamrab oladi.



Date: 17th November-2025

Shu bois, O‘zbekiston tashqi siyosati xalqaro huquq mezonlari asosida tizimli, huquqiy va konstruktiv xarakter kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [uncharter.pdf](#)
2. [30.04.2023. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi](#)
3. [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi](#)
4. [Take Action for the Sustainable Development Goals - United Nations Sustainable Development](#)
5. [БМТ Бош Ассамблеясининг 80-сессияси доирасида Ўзбекистоннинг камбағалликни қисқартириш тажрибаси юқори баҳоланди - Review.uz](#)
6. [Олий Мажлис Қонунчилик палатаси](#)
7. [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi](#)

